

KO'KRAK BEZI SARATONI BILAN KASALLANGAN AYOLLARNING IJTIMOIY-GIGIENIK TASNIFI, XAVF OMILLARI VA ULARNI PROGNOZLASH

B.M.Mamatqulov TDTU, JSSM tfd., prof

X.U.Imatova TDTU, SSB va JSS

yo'nalishi magistr talabasi

hurlimanimatova@gmail.com

tel:+998913030112

Tadqiqotning dolzarbligi. Ekologik muhitning yomonlashuvi hozirgi kunda inson salomatligiga jiddiy xavf tug'dirib, ko'krak bezi saratoni kabi onkologik kasalliklarning ortishiga olib kelmoqda. Ushbu kasallik ayollar orasida eng ko'p uchraydigan saraton turlaridan biri bo'lib, erta aniqlanmasa, yuqori o'lim ko'rsatkichlariga sabab bo'ladi. Ko'krak bezi saratoni rivojlanishida genetik va gormonal omillar bilan bir qatorda atmosfera, suv va oziq-ovqat orqali ta' sir qiluvchi ekologik omillar muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ekologik noqulay hududlarda yashovchi ayollar yuqori xavf guruhiga kiradi. KBS dunyoning aksariyat mamlakatlarida ayollar orasida eng kop uchraydigan saraton turi hisoblanadi. Sut bezlari anatomik va fiziologik jihatdan ayollar reproduktiv sistemasining eng murakkab organlaridan biridir. Hayot davomida ayollar sut bezlari sezilarli ozgarishlarga duch kelishadi. Reprodukativ tizim patologiyasi bolgan bemorlarning deyarli uchdan ikki qismi shifokorga KB kasalligidan shikoyat qilishadi [1, 4, 5]. Ularning aksariyati birinchi tekshiruvdayoq aniqlanadigan patologiyaga ega. Ammo ayollarning 20% shikoyat qilmaydi, kasalliklar aksariyat hollarda dispanserizatsiya yoki profilaktik tekshiruvda patologik ozgarishlar borligi aniqlanadi [2, 7, 10, 12].

Jahonda ayollar sut bezi kasalliklari ayniqsa saratoni muhim tibbiy va ijtimoiy muammo hisoblanadi, chunki sut bezlaridagi koplak ozgarishlar vaqt otishi bilan, ayniqsa mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslarda yomonlashib, xavfli tusga kirish, hattoki olimga olib kelishi mumkin [3, 8, 9, 10, 11].

Har yil yakunida royxatga olingan bemorlar orasida KBSdan olim holatlarini tahlil qilish shuni korsatdiki, respublikada ushbu kasallikdan olim korsatkichlari yildan-yilga kamayib bormoqda. 2016 yil oxirida royxatda turgan 2 008 nafar KBS bilan ogrigan ayollardan 312 nafari vafot etgan bolib, bu 15,5 % ni tashkil etgan. 2019 yil oxiriga kelib esa 2 489 nafar ayol royxatda bolib, ulardan 291 nafari vafot etgan, yani 11,7 % [6].

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'krak bezi saratonidan kasallanish va o'lim holatlarini dinamikada o'rganish, etakchi xavf,

omillarini aniqlash va ularni oldini olishning birlamchi va ikkilamchi profilaktika tizimini takomillashtirish.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot materiallarini yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish jarayonida zamonaviy: epidemiologik, ijtimoiy-gigienik, sotsiologik, gigienik, sanitariya-statistik usullar qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari. KBS bilan kasallanganlar va shu kasallikdan vafot etgan ayollar soni (2016-2023y.y.)



Kasallanish ko'rsatkichlarida ayrim yillarda nisbiy pasayish ham qayd etilgan. Jumladan, 2018-yilda kasallanganlar soni 125 taga tushgan bo'lsa, 2020-yilda 146 ta holat aniqlangan. 2020-yilda kasallanish ko'rsatkichining keskin oshmasligi pandemiya sharoitida diagnostika jarayonlarining cheklanganligi bilan izohlanishi mumkin. Biroq 2021-yildan boshlab kasallanish holatlarining keskin o'sishi kuzatilib, 2022-yilda 203 ta va 2023-yilda 228 ta holat qayd etilib, tadqiqot davridagi eng yuqori ko'rsatkichga yetgan.


Diagrammada keltirilgan o'lim holatlari dinamikasi ham umumiy o'sish tendensiyasiga ega. 2016–2018-yillarda o'lim holatlari nisbatan barqaror bo'lib (60–61 ta), 2019-yilda 73 taga oshgan. 2020–2022-yillarda o'lim ko'rsatkichlari 62–71 ta oralig'ida saqlanib qolgan bo'lsa, 2023-yilda 87 ta o'lim holati qayd etilib, eng yuqori darajaga yetgan.

O'lim holatlarining pandemiyadan keyingi yillarda ortib borishi COVID-19 infeksiyasining bevosita emas, balki bilvosita ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Xususan, asosiy onkologik davolash jarayonlarining kechikishi, hamroh kasalliklarning og'irlashuvi hamda immun tizimiga tushgan yuklama KBS bilan og'riq bemorlar orasida o'lim xavfining oshishiga olib kelgan bo'lishi ehtimoli mavjud.

KBSning ayollarning yosh guruhlari bo'yicha tarqalganligi (%)



KBSning kelib chiqish va rivojlanishida oiladagi ruhiy holatning ta' siri



Ma' lumki oiladagi ruhiy holat ayollar salomatligiga xususan turli surunkali kasalliklarning kelib chiqishida jumladan KBSning tarqalganligi va rivojlanishiga ayolning oilaviy ahvoli va oiladagi ruhiy holat ham katta ahamiyatga ega. Oilaviy holatiga ko'ra tadqiqotga jalb etilgan asosiy guruhdagi yolg'iz, turmush qurmagan yoki erdan ajrashgan ayollar soni, nazorat guruhidagilarga nisbatan 3 barobar ko'pligi qayd etildi.

Ayollardagi KBSning tarqalganligi bilan ularning yashash sharoiti o'rtasida o'zaro bog'liqlik borligi bir qator o'xshash tadqiqotlarda xam keltirilgan . Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra qisman yomon uy sharoitida istiqomat qilayotgan asosiy guruhdagi ayollar soni nazorat guruhidagilarga nisbatan 2 marta, qoniqarli uy sharoitidagilarga nisbatan esa 1,4 martaga ko'p ekanligi qayd etildi.

So'rovnoma asosida KBSning kelib chiqishida nasliy omillarning rolini o'rganganimizda 5.0% bemorning yaqin qarindoshlari orasida ko'krak bezi saratoni kasalligining mavjudligi, 4 % esa ushbu kasallikdan vafot etganligi qayd etildi. Nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich bor yo'g'i 1.3% va 2.0% ni tashkil etdi. Va KBSning kelib chiqishi va rivojlanishida ma' lum ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlandi.

Tadqiqotimiz natijalari ayollarda KBSning kelib chiqishi va rivojlanishida yurak-qon tomir tizimi, asab tizimi, nafas olish a' zolari, allergik kasalliklar bilan bir qatorda ginekologik kasalliklar, anemiya va Covid-19 uning asoratlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi, ayniqsa anemiya kasalligida qonda gemoglobin miqdori qancha kam bo'lsa ayollarda KBSning shuncha ko'p uchrashi tasdiqlandi. Shuni alohida ta' kidlash lozimki KBS bilan kasallangan ayollar orasida surunkali

kasalliklar ($135,0 \pm 2,0\%$), KBS bilan kasallanmagan-amaliy sog'lom ayollarga ($54,3 \pm 2,8\%$) nisbatan 2.5 marta ko'p qayd etilganini ko'rsatdi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari ekologik noqulay sharoitlar ayollar orasida ko'krak bezi saratoni rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Atmosfera havosi, suv va oziq-ovqat tarkibidagi zararli moddalar organizmga salbiy ta'sir etib, onkologik kasalliklar tarqalishiga zamin yaratadi. Shu sababli, kasallikning oldini olishda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda erta diagnostika choralari kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, muntazam tibbiy ko'riklarni yo'lga qo'yish, zamonaviy diagnostika usullarini keng joriy etish hamda davlat darajasida profilaktik dasturlarni amalga oshirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar ekologik noqulay hududlarda ko'krak bezi saratoni tarqalishini kamaytirishga xizmat qiladi va ayollar salomatligini mustahkamlashga qaratilgan samarali strategiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аксель Е.М. Злокачественные новообразования молочной железы: состояние онкологической помощи, заболеваемость и смертность // Опухоли женской репродуктивной системы. 2006. №1. С. 9-13.
2. Корженкова Г.П., Кочергина Н.В. Комплексная рентгено-сонографическая диагностика заболеваний молочной железы. Практическое руководство. М.: ООО «Фирма “СТРОМ”», 2004. 128 с.
3. Под ред. Харченко В.П., Рожковой Н.И. Маммология: Национальное руководство / М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009. 324 с.
4. Рак молочной железы: профилактика и борьба : [арх. 15 сентября 2018]. ВОЗ.
5. Рожкова Н.И., Бурдина И.И., Дабагов А.Р., Мазо М.Л., Прокопенко С.П., Якобс О.Э. Лучевая диагностика в маммологии. СИМК. Москва. 2014. С. 22-25, 26, 60–66, 55, 110–115, 150–170.
6. Сарибекян Э.К. Отечная форма рака молочной железы / Э.К. Сарибекян // Российский онкологический журнал, №2, 2012. – С. 4-8
7. Семиглазов В.Ф. [и др.] Профилактика рака молочной железы у больных с пролиферативными процессами репродуктивной системы // Вопросы онкологии. – 2006. – Т. 52, №3. – С. 247-257.
8. Харченко В. П., Рожкова Н. И., Мазо М. Л., Аминов З. Д. Возможности лучевых методов исследования в диагностике узловых образований аксиллярной области // Опухоли женской репродуктивной системы. 2006. №2. С. 37-40.

9. Berg W.A., Zhang Z., Lehrer D. et al. Detection of breast cancer with addition of annual screening ultrasound or a single screening MRI to mammography in women with elevated breast cancer risk. JAMA 2012;307(13):1394–404
10. Chakraborti K. L., Bahl P., Sahoo M., Ganguly S. K., Oberoi C. Magnetic resonance imaging of breast masses: Comparison with mammography // Indian Journal of Radiology and Imaging. 2005. V. 15. №3. P. 381.
11. Delorme S., Zuna I., Huber S. et al. Colour Doppler sonography in breast tumours: an update // Eur Radiol. 1998. Vol. 8. P. 189–193.
12. Zanello P.A., Robim A.F., Oliveira T.M. et al. Breast ultrasound diagnostic performance and outcomes for mass lesions using Breast Imaging Reporting and Data System category 0 mammogram. Clinics 2011;66(3):443–8.